

## O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi Sirdaryo viloyat statistika boshqarmasi

### 2019 yilning YANVAR-MART oylarida qurilish ishlari

#### Raqamlar:

Qurilish ishlari hajmi

*177,3 mlrd.so'm*

Yirik pudrat  
tashkilotlari ulushi

*-4,7%*

Kichik tashkilotlar va  
mikrofirmalar ulushi

*-74,0%*


Norasmiy sektor ulushi

*-21,3%*

Joriy yilning yanvar-mart oyida viloyatda **177,3** mlrd. so'mlik **qurilish ishlari** bajarilib, o'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan 107,2 % ni tashkil etdi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 74,0 %i yoki 131,3 mlrd.so'm to'g'ri keldi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 100,7 % ni tashkil etdi, norasmiy sektor hissasiga esa 21,3 % yoki 37,7 mlrd.so'm to'g'ri keldi hamda o'tgan yilning mos davriga nisbatan 127,6 % ni tashkil etdi.


### Qurilish ishlari (mlrd.so'm)



**Shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlar tarkibi  
(mlrd.so'm)**

	Jami qurilish ishlari	shu jumladan, qurilish ishlari tarkibi bo'yicha		
		yirik pudrat tashkilotlari	kichik korxonalar va mikrofirmalar	norasmiy sektor
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>177,3</b>	<b>8,3</b>	<b>131,3</b>	<b>37,7</b>
Guliston sh.	64,8	2,6	45,8	16,4
Shirin sh.	7,9	-	7,1	0,8
Yangiyer sh.	14,7	-	12,4	2,3
Boyovut	13,7	0,1	10,8	2,8
Guliston	8,1	-	6,0	2,1
Mirzaobod	14,6	1,1	11,2	2,3
Oqoltin	12,8	1,2	10,3	1,3
Sardoba	5,7	-	3,8	1,9
Sayhunobod	6,0	-	4,6	1,4
Sirdaryo	18,1	-	12,6	5,5
Xovos	10,9	3,3	6,7	0,9



**Faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari (mlrd.so'm)**




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi turar joy va yashash uchun mo'ljallangan binolar qurish hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolarni qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi. Ularning ulushi jami qurilish ishlari hajmida 69,9 % ni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davridagi ko'rsatkichga teng.

Fuqarolik qurilishi ob'ektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari hajmi joriy davrda 18,6 % ni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davridagi ko'rsatkichga teng.

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hissi esa 11,5 % ga to'g'ri keldi hamda o'tgan yilning mos davridagi ko'rsatkichga teng.




## Hududlar kesimida qurilish ishlari quyidagicha ifodalanadi:



Viloyatda bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi Guliston shahriga to'g'ri kelib, 64,8 mlrd. so'mni tashkil etdi hamda o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 105,4 % ni tashkil etdi. Sirdaryo tumanida qurilish ishlari hajmi 18,2 mlrd. so'mni tashkil etdi va o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 106,8 % ni tashkil etdi. Mirzaobod tumanida qurilish ishlari hajmi 14,5 mlrd. so'mni tashkil etdi va o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 118,4 % ni tashkil etdi. Oqoltin tumanida qurilish ishlari hajmi 12,8 mlrd. so'mni tashkil etdi va o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 112,7 % ni tashkil etdi.




## Qurilish ishlari umumiy hajmida hududlarning ulushi, % da




Hududlar kesimida qurilish ishlarining katta qismi Guliston shahrida bajarilgan bo'lib, viloyatda bajarilgan qurilish ishlarining 36,5 % ni tashkil etdi, Sirdaryo tumanida bajarilgan qurilish ishlari 10,2 % ni, Yangiyer shahrida 8,3 % ni, Mirzaobod tumanida 8,2 % ni va tashkil etdi.

## Bajaruvchi sub'ektlar bo'yicha qurilish ishlari ulushi, % da




**Bajaruvchi sub'ektlar turlari bo'yicha  
qurilish ishlari hajmi  
(mlrd.so'm)**





Joriy davrda jami qurilish ishlarining katta qismi kichik tashkilotlar va mikrofirmalar xissasiga to'g'ri keldi. Ular tomonidan bajarilgan qurilish ishlari jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 74,0 % ni tashkil etdi. Yirik qurilish pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari, jami qurilish ishlaridagi ulushi 4,7 % ni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 1,2 % ga ko'paydi. Norasmiy sektor xissasiga jami qurilish ishlarining 21,3 % ga to'g'ri kelib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 2,1% ga ko'paydi.

### Mulkchilik shakllari bo'yicha qurilish ishlari, (mlrd.so`m)



Mulkchilikning nodavlat shaklidagi qurilish tashkilotlari tomonidan 164,3 mlrd.so'mlik qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, jami qurilish ishlari hajmining 92,7 % ini tashkil qildi va ushbu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 1,1 % ga o'sdi.

### Mulkchilik shakllari bo'yicha qurilish ishlari ulushi, % da



Nashr uchun mas'ul:



**Sirdaryo viloyat statistika  
boshqarmasi  
Investitsiyalar va qurilish statistikasi  
bo'limi**

**G'.Qarshiyev**  
*(0371) 230-86-27*